



**“BUXORO ADABIY MUHITI:  
KECHA VA BUGUN”**  
mavzusidagi  
xalqaro ilmiy-nazariy  
**ANJUMAN  
MATERIALLARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI BUXORO  
VILOYATI BO‘LIMI**

**TOJIKISTON RESPUBLIKASI BOBOJON G‘OFUROV  
NOMIDAGI**

**XO‘JAND DAVLAT UNIVERSITETI**

**TURKIYA JUMHURIYATI HACETEPE UNIVERSITETI**

**“BUXORO ADABIY MUHITI:  
KECHA VA BUGUN”**

**mavzusidagi  
xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

**MATERIALLARI**

**Buxoro  
“Ilm ziyosi”  
2024**

KBK: 84.3(0)7.724  
UDS: 821.557.632.2.4.5.41  
K-54

“Buxoro adabiy muhiti: kecha va bugun” mavzusidagi AL-662204396 “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari. – Buxoro: “Ilm ziyosi”, 2024. – 632 b.

Buxoro davlat universiteti rektorining 2024-yil 15-avgustdagi 509-U sonli buyrug‘i asosida Buxoro davlat universitetida o‘tkazilgan “Buxoro adabiy muhiti: kecha va bugun” mavzusidagi AL-662204396 “Buxoro adabiy muhiti ijodkorlarining ilmiy-adabiy merosi bo‘yicha elektron platforma yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida tashkil etilgan xalqaro ilmiy-nazariy anjuman Materiallari besh bo‘limdan iborat bo‘lib, uning har bir bo‘limida Buxoro adabiy muhitining o‘tmishi va buguniga doir dolzarb muammolari qamrab olingan. 200 ga yaqin maqolalarni o‘z tarkibiga olgan mazkur to‘plam professor-o‘qituvchilar, mutaxassis va tadqiqotchilar, doktorant va izlanuvchilarga mo‘ljallangan.

**Mas’ul muharrirlar:**

Q.To‘xsanov – BuxDU professori  
Sh.Davronova – BuxDU professori

**Tahrir hay’ati:**

H.Eshonqulov, D.Rajabov, G‘.Murodov, Sh. Axmedova, D.O‘rayeva,  
D.Quvvatova, Sh.Hayitov, M.Rajabova, N.Bekova, Z.Amonova

**To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:**

N.Qodirova, R.Rajabova, N.Norova

**Taqrizchilar:**

Laylo Sharipova– filologiya fanlari doktori, professor  
Hayot Latipov– filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

ISBN 978-9910-745-39-3

© Buxoro davlat universiteti, 2024  
© “Fan ziyosi”, 2024

o'rnini bosa olmaydilar, balki undan ibrat va namuna oladilar, chunki uning ko'ngli "irfon maxzani" bo'lib, Alloh taoloning tajalliygohi hamdir.

Demak, ulug' shoir bunda tabiat va Insonning yaxlitligi haqida so'z yuritadi. Shuning bilan bir qatorda Inson mavjudot Xalqoqi tomonidan eng mo'tabar va mo'jiza sifatida yaratilganiga ham ishora qiladi.

Shunday qilib, "Lison ut-tayr" dostoni falsafiy-tasavvufiy asar bo'lib, unda Alisher Navoiyning umri oxirlaridagi falsafiy-ijtimoiy va axloqiy qarashlari ramziy timsollar hamda tarixiy va badiiy to'qima obrazlar misolida gavdalantirilgan.

Ko'rinadiki, Alisher Navoiy, bir tomondan, dostonlarning yaxlit turkumidan iborat bo'lgan buyuk "Xamsa"ni va, ikkinchi tomondan, alohida dostonning go'zal namunasi bo'lmish "Lison ut-tayr"ni yaratish bilan bu sohada Sharq mumtoz adabiyotida mavjud bo'lgan an'analardan ilhomlanib, turkiy dostonchilik tarixiga ulkan adabiy yodgorliklarni hadya etdi. Alisher Navoiyning dostonchilik sohasidagi faoliyati faqat o'zbek adabiyoti tarixidagina emas, balki Sharq adabiy-madaniy hayotida ham muhim bir hodisa ekanligi ko'pgina shoir va allomalar tomonidan e'tirof etilgan.

Shuning uchun Sharqning ulkan shoir va adiblarigina (jumladan, Muhammad Fuzuliy) emas, balki g'arbning mashhur yozuvchilari (jumladan, Xristofor Armeniy, Volter, Mark Tven) ham Alisher Navoiy dostonlaridan ilhom oldilar, ulardagi sujetlardan foydalandilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi, – 2019.
2. Nava'i Alisher. The Language of the birds (Lison ut-tayr) tarjimonlar: Garri Dik, Nosir Qambarov, Tursunxo'ja Mahmudxo'jayev/Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi, – 2018.
3. "Qur'oni Karim" ma'nolarining tarjima va tafsifi (Abdulaziz Mansur tarjimasini) "Toshkent Islom Universiteti". Nashriyot manbaa birlashmasi. Toshkent, 2004 yil.

### **BADIIY MATNDA SUKUTNING EKSPLITSIT VA IMPLITSIT IFODASI**

*Yuldasheva Dilorom Nigmatovna,*  
Buxoro davlat universiteti professori, f.f.d. (DSc)  
*Umarova Dildor Faxriddinovna,*  
Osiyo xalqaro universiteti I bosqich magistri

**Annotatsiya:** O'zbek xalqida "kosa tagida nimkosa" degan ajoyib naql bor. Buning ma'nosi shuki, ba'zan bir gapimiz boshqa bir mazmuni ifodalaydigan gapga ishora qiladi. Nutqiy muloqot jarayonida, ko'pincha, tinglovchining "qattiq patiga tegib qo'ymaslik" uchun "o'rab" gapiramiz. "O'rab" gapirishimizni nutqiy vaziyatning o'zi taqozo etadiki, so'zlovchi, odatda, buni nutq jarayonidan avval rejalashtirmasligi ham mumkin.

**Kalit so'zlar:** badiiy matn, sukut, eksplitsit ifoda, implitsit ifoda



**Аннотация:** У узбекского народа есть замечательная поговорка «чаша под маленькая чаша». Это означает, что иногда одно предложение относится к предложению, которое выражает другое значение. В процессе речевого общения мы часто «заворачиваемся», чтобы «не задеть твёрдые перья» слушающего. Речевая ситуация требует от нас произнесения «обёрток», которые говорящий обычно не планирует перед речевым процессом.

**Ключевые слова:** художественный текст, молчание, эксплицитная экспрессия, имплицитная экспрессия.

**Annotation:** The Uzbek people have a wonderful saying: “a cup under a small cup.” This means that sometimes one sentence refers to a sentence that expresses a different meaning. In the process of verbal communication, we often “wrap ourselves up” so as not to “hurt the hard feathers” of the listener. The speech situation requires us to pronounce “wrappers” that the speaker usually does not plan before the speech process.

**Key words:** literary text, silence, explicit expression, implicit expression

Badiiy adabiyotda talmeh, iyhom, tajohilu orifona kabi bir qator she'riy san'atlar borki, ularda ham muayyan mazmun yashirin keladi va o'sha mazmunga ishora qilinadi. Jumladan,

Talmeh badiiy san'ati, odatda, atoqli otlarga ishora qiladi. Vahob Rahmon ta'kidlaganidek, ijodkor muayyan personaj tasvirini yaratar ekan, uni tarixan mashhur voqelik bilan chog'ishtiradi, unga mengzaydi. Bu shaxs, joy, tarixiy voqea, asar qahramoni va h.lar bo'lishi ham mumkin. Talmehda aytilganlar aynan keltiriladi yoki ular aynan keltirilmay o'sha voqelikka ishora qilinadi.

Iyhom badiiy san'ati kitobxon(o'quvchi)ni shubhaga soladi. She'riy misralarda ochiq ifodalangan ma'no ostida undan sirliroq, chuqurroq yana bir ma'no bor. Tafakkuring oynasi qancha tiniq bo'lsa, tagma'nodan shuncha ko'p bahramand bo'lasan kishi.

Tajohilu orifonada har narsaga aqli yetib turgan ijodkor muayyan voqelikni, go'zallikni, dilrabolig-u dilnavolikni, qo'yingki, barcha-barchasini bilib turib o'zini bilmaslikka oladi va shu orqali o'sha “muayyan voqelik”ka ishora qiladi.

Tajnisda ham omonim birliklar orqali so'z o'yini qilib leksik birliklarning shakldoshligi asosida goh u ma'noga, goh bu ma'noga ishora qilinishi ma'lum.

Tashxisda jonli yoki jonsiz narsalar shaxslantirilganda ham insonga xos xususiyatlarga ishora etiladi. Ba'zan tashxisda mavhum tushunchalar, jumladan, sukut ham shaxslantiriladi. Masalan,

*Bulutlar to'xtadi, shamol to'xtadi.*

*Qorning uchqunlari qotdi muallaq,*

***Sog'ingan dunyoni sukut yo'qladi,***

*Sening yo'qligingni eslatdi barhaq.* (Usmon Azim)

Qolaversa, istiora (ichki umumlashmaga ishora), tanosub (o'zaro yaqin tushunchalarga ishora), husni ta'lil (voqelikka daxli bo'lmagan boshqa bir hodisa bilan muayyan go'zallikni dalillashda ham sabab va oqibatga ishora), kinoya (achchiq kulgi orqali salbiy holatlar haqida mushohadaga chorlovchi) san'atlarida ham bir ma'no boshqa bir ma'noga ishora qilib turadi.

Bu holat metafora, metonimiya, senikdoxa, evfemizm, perifrazalarda ham kuzatiladi. Masalan, qisqartirilgan qiyosda ixcham shaklning ma'noviy ta'sirchanligi yuqori bo'ladi, shuning uchun ko'zda tutilgan mazmuni tinglovchi o'z bilimlari asosida idrok etadi: *Toziga chap berib qochgan har tulki, Arman tuprog'ini bo'yadi qonga.* (A.Oripov, "Armaniston" she'ridan). Bu o'rinda *tozi* metaforasi an'anaga zid ravishda ijobiy ma'noda, ya'ni "*bosqinchilarga qarshi kurashgan xalq*" ma'nosida, *tulki* metaforasi "*tullak*", "*aldovchi*" ma'nosida emas, balki "*bosqinchi*" ma'nosida qo'llanilgan. *Tulki* metaforasi bilan *tulkiga o'xshagan bosqinchi* o'xshatishi qiyoslanganda, metaforadagi ixchamlik va ta'sir ko'lami yaqqol anglashiladi. Metaforalar ba'zan ifodaning obrazlilikini, badiiyligini ta'minlash uchungina xizmat qilsa, ko'p o'rinlarda keng qamrovli axborotni qisqa, lakonik (muayyan fikrni ixcham va lo'nda) tarzda yetkazib berilishini ta'minlash orqali obrazlilikka, badiiylikka yo'l ochadi.

Yana bir misol. *Vujud deganlari asli nimadir? Dayr dengizida yurgan kemadir.* (A.Oripov, "Ruhim" she'ridan). Insonning foniy dunyodagi hayoti butun murakkabliklari bilan *dengiz* va *kema* metaforalari orqali jamlangan.

Poetik xarakterdagi bunday ixcham shakllarda obrazli tasvir bo'rtib turadi. Poetik matnlarga xos metaforalar prozaik matnlarda keluvchi metaforalardan farqlanadi, prozaik matnlarga xos metaforalarni so'zlashuv uslubida ham kuzatish mumkin, biroq poetik matn metaforalarida alohidalik, ohorlilik ko'zga tashlanadi va ularga individual (neologik) metaforalar deb qarash mumkin. Metafora inson psixikasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, xotirasida so'zlarning ma'nolari bilan birga ularning obyektiv olamda o'z sezgi a'zolari orqali his etgan xususiyatlari haqidagi yashirin ma'lumotlarni tiklaydi.

Badiiy matnlardagi okkazional so'zlar ham muayyan mohiyatga ishora qiladi. Poetik til leksikasida yashirin ma'noni ilg'ashga ishorani reallashtiruvchi okkazionalizmlar individual ijodiy yaratilma sifatida g'oyaviy-badiiy mazmuni bir so'z bilan shunday jonlantiradiki, bu nafaqat ijodkorning, balki o'quvchining ham estetik didi, idrokining yuqori bo'lishini talab etadi. Odatda, insonning axborot qabul qilish qobiliyati cheklangani tufayli nutq oqimida axborotni qisqartirish ehtiyoji vujudga keladi [1]. Xuddi shuningdek, inson tafakkuri istalgan axborotni qayta ishlashi va individuallashtirishini inobatga olsak, taqdim etilayotgan axborot qisqa, lo'nda va mulohazaga chorlash xususiyatiga ega bo'lishi muhim. Xalq maqollari, murojaat shakllari, so'z-gaplar ham shunday xususiyatga ega. Bu kabi misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Umuman, tinglovchi(o'quvchi)ga taqdim etilayotgan axborot tarkibida muayyan kodning yashirilishi va shu yashirin mohiyatni topish, idrok etish tinglovchi (o'quvchi) hukmiga havola etilishi o'zbek adabiyotshunosligida, o'zbek tilshunosligida bo'lak-bo'lak tarzda, ba'zan yo'l-yo'lakay o'rganilgan. Jahon pragmalingsvistlari mazkur hodisalarni *implisit* atamasi ostida birlashtirib o'rganishni ma'qul ko'rishdi.

Nutqiy muloqotda muayyan axborotning lisoniy belgilar orqali bevosita ifodalanishi fikrning *eksplitsit* ifodalanishi sanaladi. Agar fikr leksik va grammatik belgilari orqali uzual ifodalanmasa-da, uning o'quvchi (tinglovchi) tomonidan

mustaqil idrok etilishi ko'zda tutilsa, bu ma'noning *implitsit* ifodalanishi hisoblanadi [2].

Demak, nutqiy muloqotda fikr oshkora ifodalansa, bu eksplitsit ifodalanish, fikr yashirin tarzda berilsa va shu yashirin ma'noga ishora etilsa, bu implitsit ifodalanish sanaladi. O'zbek tilshunosligida hozirgacha o'rganilgan badiiy asarning zohiriy va botiniy ma'nolarini yuzaga chiqaruvchi vositalar yoki o'zbek adabiyotshunosligidagi ma'no va tagma'no bilan bog'liq qarashlar implitsit hamda eksplitsit hodisalari uchun umumiylik-xususiylik xarakterida bo'ladi.

Jahon tilshunosligida implitsitlik hodisasining o'rganilishi boshlanganiga bir asrdan oshdi. Jumladan, mazkur atamaning fanga kirib kelishini N.A.Panina nomi bilan bog'laydilar [5]. Mavzu doirasida ming-minglab ilmiy maqolalar nashr etilgan, fundamental tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mazkur ishlar M.Hakimovning "O'zbek pragmalingsvistikasi asoslari" kitobi[9]da batafsil tahlilga tortilgani uchun biz ularni takrorlab o'tirmadik.

O'zbek tilshunosligida M.Hakimov "umumyashirin" atamasi bilan atagan implitsitlik hodisasini batafsil o'rganishga endi kirishildi. Bu xususda A.Ko'chiboyev shunday yozadi: "Tildagi implitsitlik muammosini va uning badiiy matnni tushunishdagi rolini tadqiq qilish hozirgi zamon pragmalingsvistikasi, kognitiv tilshunosligi bilan shug'ullanayotgan tadqiqotchilar uchun eng murakkab va qiziqarli masalalardan biridir... Badiiy matnda implitsit ifodalangan fikr, uning ifodalanish turlari va vositalari bir asrdan beri nafaqat tilshunoslarni, balki adabiyotshunoslarni, faylasuflarni, ruhshunos olimlarni ham qiziqtirib kelmoqda." [6].

I.N.Gorelov to'g'ri ta'kidlaganidek: "Inson ongida tayyor til materialini sifatida minglab so'zlar zahirasi mavjud bo'lsa-da, kommunikantlar nutqda qisqa va ta'sirchan bayon tarziga intiladilar, shunga ko'ra, kommunikatsiya jarayonida ayrim verbal vositalar o'rnida noverbal vositalardan foydalanadilar yoki axborotni to'raligicha noverbal vositalarga yuklaydilar. Noverbal komponent nutqiy aktda lingvistik belgi bo'lmagan tarkibiy qism sifatida "hazm qilinadi". Aslida, nutqda lisoniy belgi moddiylikni – muayyan mazmuni ichki imkoniyatlari asosida o'ziga qulay tarzda – ifodalash imkoniyatiga ega. Demak, bu imkoniyat o'rnini ramziy struktura, noverbal vositalar egallaydi va lingvistik belgi ifodalashi mumkin bo'lgan mazmunga putur yetkazmaydi, aksincha, uni to'laroq ifodalash imkonini beradi" [3].

Fikrni implitsit (yashirin) tarzda ifodalashning turli usul va vositalari mavjud bo'lib shulardan biri sukut hisoblanadi. Nutqda ifoda bayoni, jumlaning u yoki bu ma'nosi kommunikatsiya ishtirokchilarining shaxsi, fikrlash faoliyati va tasavvurlari bilan uzviy bog'lanadi. So'zlovchining dunyoqarashi, tashqi olam haqidagi tasavvuri qancha keng bo'lsa, u nutqiy vaziyat darajasini shu qadar tez chamalaydi hamda shunga mos tarzda fahm-farosat bilan axborot ko'rinishlarini oshkor (eksplitsit) yoki yashirin (implitsit) shaklda bayon eta oladi. Tabiiyki, ta'kidlaganimizdek, tinglovchi(o'quvchi)ning farosati ham uni tushuna oladigan tarzda bo'lishi muhim.

Axborotni ochiq yoki batafsil aytish imkoniyati bo'lmaganda, so'zlovchining ichki maqsadi, psixologik vaziyati bilan bog'liq tarzda axborotni yashirin berish jim qolish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Jim qolishning sabablari turlicha bo'lishi mumkin.



J.Jensen jim qolishning beshta sababini ko'rsatadi: 1) ko'pchilik tolerantlik nuqtayi nazaridan o'z fikrini yoki norozilik kayfiyatini sukut saqlash orqali "yashiradi"; 2) suhbatdosh jim qolish orqali suhbat mavzusiga beparvoligini, u uchun bu mavzu qiziq emasligini, umuman, salbiy emotsiyasini izhor etadi; 3) suhbatdosh nima deyishini bilmasa, unda suhbat mavzusi uchun bilimlar yetishmasa yoki suhbat mavzusidan bexabar bo'lsa, uning jim o'tirishdan boshqa iloji bo'lmaydi; 4) suhbatdosh biror muhim fikrga rozi yoki noroziligini sukut orqali ifodalaydi; 5) jim qolish suhbatdoshlar nimani istashlari haqida o'ylab olishlariga yoki fikrlarini to'g'ri yo'naltirishga imkon beradi [4].

Yashirin mazmun nutqiy ifodada sukutga yuklanadi, chunki sukutni alohida nutq ifodasi sifatida ajratish va uning vositasida bir qator kommunikativ maqsad-mazmunni ifodalash imkoniyati mavjud. Sukut muloqotda psixologik belgi (so'zlovchining holati) tarzida namoyon bo'lib, shunga mos tarzda lisoniy belgi bilan muvofiqlashadi: yozuvda ko'p nuqtaning qo'yilishi, shakliy-mazmuniy tejamlilik, talaffuzda esa intonatsiyaning aktuallik kasb etishi kabi. Mazkur usul turli nutqiy harakatlarni ifodalash vositasi bo'la oladi, muhimi, sukut saqlash kommunikantlarning maqsadli harakati namunasiga aylanadi, bunda so'zlovchi nutq intensiyasi(maqsadi)ni o'zi uchun aniq belgilagan bo'lsa-da, fikrini oxirigacha yetkazmaydi, shunday o'rinlarda, xulosa qilish, fikrni davom ettirish tinglovchiga havola etiladi, tinglovchi (o'quvchi) sukut mazmunini o'zi istaganiday tasavvur qilish, tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Badiiy asarda sukut ma'nosi oshkor (eksplitsit) ifodalanganda, albatta, asar muallifining izohi keltiriladi. Masalan,

**Misol.** *Habib Sattorov uning gaplarini eshita turib "Tupurdim sening marhamatingga! Men Moskvagami, Angliyagami ketib ishlashim ham mumkin. Ammo sen shu shilta yeringdan bir qarich jila olmaysan!" demoqchi bo'ldi-yu, **tilini tiydi.** Joy talashib, past ketishni istamadi.*

*Buyruqni ko'ra solib, bostirib kirishining zaiflik alomati bo'lganini fahmlab, o'zini o'zi koyidi. "Shu badbaxtning huzuridan boshimni egib chiqsam, bir umrli sharmandalik bo'ladi", degan fikrga kelib, qaddini g'oz tutdi.*

*Uning bir oz **jim qolganini** Sohob Po'latov o'zicha tushunib, qo'li baland kelganiga ishongan holda gapini davom ettirdi:*

*– Yana ham men sizni hurmat qilaman, azizim, Sizday olimlar ko'chada qalashib yotgani yo'q. Ba'zi o'rtoqlar buni tushunishmaydi. Hatto partbiletini stolga qo'ysin, deydiganlar ham topildi. Men ularga qat'iy qarshi chiqdim. (Tohir Malik. Shaytanat. 3-kitob, 133-b.)*

Olingan parchadan ko'rinib turibdiki, so'zlovchi(Habib Sattorov)ning "tilini tiyishi", "jim qolishi" ijodkor tomonidan eksplitsit holatda batafsil izohlangan. Xuddi shuningdek, tinglovchi(Sohob Po'latov)ning bu holatni qanday mushohada etganligi ham yoritib berilgan.

**Misol.** *Non sindirilib, "oling, oling" boshlangunga qadar deyarli **gap-so'z bo'lmadi** hisob. Abdurahmon tabib mehmonlarga zimdan qarab chiqdi. Nazari bir necha soniya Asadbekda to'xtab, uning xastaligini fahmladi. Zotan, uning xastaligini tabib bo'lmagan odam ham biluvi mumkin edi. Mehmonlarning kelishlaridan*



*maqsadi kasal boqtirish ekanini sezsa-da, tabib “Kelinglar, xizmat” demadi. Shu paytgacha biron o‘zbek mehmonga “nima uchun uyimga kelding” demagani holda pok-nopokni durust ayira oluvchi, o‘ziga imon yo‘lini ma‘qul deb tanigan Abdurahmon tabib aytarmidi.*

*Jalil ham, Asadbek ham suhbatga deyarli aralashmay **jim o‘tirishdi**. Ayniqsa, Jalilning jim o‘tirishi ulug‘ tahsinga loyiq buyuk jasorat edi.*

*Muhiddin ota birdaniga maqsadni aytmay, gapni uzoqdan boshladi. (Tohir Malik. Shaytanat. 3-kitob, 154-b.)*

Ijodkorning mahorati shundaki, kommunikantlarning sukut saqlashi sababini to‘g‘ridan to‘g‘ri izohlamaydi. Jalil bilan Asadbekning **jim o‘tirishlari** sababi Muhiddin tabibning o‘y-xayollari orqali oshkora (eksplitsit) holatda keltiriladi. Shu o‘rinda o‘quvchi, bir tomondan, Muhiddin tabibning sinchkovligiga tan bersa, ikkinchi tomondan, kelgan “mehmonlar”ning sukuti sababini oddiy axborot tarzida qabul qilib ketaveradi.

**Misol.** – *Akbarali, sen shunday bir ish qilibsanki, – dedi noyib to‘ra, – endi mundan nari men seni himoya qilolmasman.*

*Mingboshi nima deyishini bilmasdan yerga qarab **jimgina o‘tirardi**. (Cho‘lpon. Kecha va kunduz, 253-b.)*

Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asaridagi salbiy qahramonlardan biri – Akbarali mingboshi. Fikrsiz, bilimsiz, o‘z nafsining quli bo‘lgan bu irkit jonzot elning boshiga kelgan kulfat; avomgina Zebi uchun, uning mushtipar onasi Qurvonbibi uchun “o‘ligi tirigidan qimmatga tushgan” maxluq. Akbaralidek maraztabiat insonlarni xalq boshiga chiqargan noyib to‘raning aytayotgan gapiga u nima deb javob berishni bilmaydi. Sababi, Akbarali deganlari g‘irt savodsiz, bilimsiz, ayni paytda, g‘irt tullak, ko‘ppaktabiat. Asarni boshidan o‘qib kelayotgan o‘quvchi buni juda yaxshi anglaydi, shuning uchun ham muallif izohida berilgan “*Mingboshi nima deyishini bilmasdan yerga qarab **jimgina o‘tirardi**” degan jumla uni hayron qoldirmaydi. Kitobxon buni tabiiy ravishda qabul qiladi.*

Misollardan ko‘rinadiki, badiiy asarlarda kommunikantlarning sukut saqlashi oshkor (eksplitsit) holatda ifodalanishi goh so‘zlovchi, goh tinglovchi o‘y-xayollari orqali, ba‘zan esa asar muallifi izohida berilishi mumkin ekan.

Endi badiiy matnda sukutning implitsit (yashirin) ifodasi xususida to‘xtalib o‘tamiz. Misollarga murojaat qilamiz.

So‘zlovchining chuqur psixologik holati sabab uning nutqi oxiridagi muayyan qism aytilmay qoladi, ya‘ni sukut (yozuvda ko‘p nuqta) bilan almashtiriladi. So‘zlovchi bu holat oldida so‘zlashdan ojiz bo‘lib qolganini anglatish uchun jim qolish orqali tuyg‘ularini to‘la namoyon etadi, natijada gap formal jihatdan tugal shakllantirilmaydi. Jumladan,

**Misol.**– *Nima, kasalmisan, qizim, ranging... – so‘radi u va go‘yo yuragini beshafqat panja g‘ijimlay boshladi.*

*– Ha, mazam yo‘groq, – dedi Mayram. (Omon Muxtor. Oppoq qor, 111-b.)*

Keltirilgan misolda jim qolish usuli orqali nutq ishtirokchilarining chuqur psixologik holati va ichki his-tuyg‘ulari bilan aloqador bo‘lgan ekspressiv akt yuzaga chiqqan, aslida so‘zlovchi harakat subyekti yashirayotgan, sodir bo‘lishini

anglamlaslik mumkin bo'lmagan voqeani anglab yetgan, ya'ni urushga ketgan o'g'lidan qoraxat kelganini shu sabab qizning yig'laganini tushunib yetgan. Gapda "ranging" so'zidan so'ng qo'llanishi lozim bo'lgan "siniqqan" yoki "sarg'aygan" mazmunidagi kesimning ataylab tushirilishi (ifodalanmay qolishi) muloqot egalari o'rtasida kuchli psixologik vaziyatning voqelanishiga imkon yaratgan. So'zlovchi nutqining oxiri jim qolish bilan almashtirilishi, shu o'rinda, yana bir karra sukut inson ruhiy holatini so'zdan ko'ra yaqqol yuzaga chiqishini dalillagan. Badiiy voqelikni anglashga verbal axborotdan ko'ra ko'proq jim qolish vositasi ta'sirliroq xizmat qiladi, badiiy kommunikatsiyada jim qolish so'zlashdan ko'ra ko'proq muhim bo'lib qoladi.

Ikkinchi tomondan, mazkur holatda axborot qabul qilish insonning miya faoliyati, fiziologik energiyasi, xotira imkoniyatini ishga soladi, ayni paytda, kommunikantlarning o'zaro muloqoti jarayonida fikrning to'la tushunilishiga hamda nutqiy ixchamlikka erishiladi.

Ta'kidlash joizki, nutqiy vaziyat asosida kommunikantlar dialogida gapning ma'lum bo'laklarini tushurib qoldirish bilan implitsit hodisasini chalkashtirmaslik kerak.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Борисов В. Аббревиация и акронимия. – Москва, 1972. – С.53.
2. Долинин К.А. Имплицитное содержание высказывания // Вопросы языкознания. –1983. – № 6. – С. 37.
3. Горелов И.Н. Избранные труды по психолингвистике. – Москва: Лабиринт, 2003. – С. 173.
4. Jensen J. V. Communicative Functions Of Silence.– ETC: A Review of General Semantics/ Vol. 30. – №. 3. –1973. – P. 249-257.
5. Yuldasheva D.N. Sukut – nutqiy muloqot komponenti. Monografiya. – Buxoro: Bukhara hamd print, 2024. – 176 б.
6. Кўчибоев А. Матн прагматикаси.– Самарқанд, 2015.– 123 б.–72-б.
7. Юлдашева Д.Н. Нуткий мулоқотда сукутнинг ўрни// Образование и инновационные исследования. №1. –2020. –С. 134-142.
8. Ҳақимов М. Ўзбек прагматикаси асослари. – Тошкент: Akademnashr, 2013.– 178 б.

#### **МУКАРРАР САНЪАТИ ВА УНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАВСИФИ**

***Бердиев Хусан Холназарович,***

Иқтисодиёт ва педагогика университети  
нодавлат таълим муассасаси доценти

***Ражабов Дилшод Зарипович,***

Бухоро давлат университети филология фанлари  
доктори(DSc), professor

***Аннотация.*** Ушбу илмий мақолада бадий санъатлардан бири тақрирнинг (сўзларни тақрорлашнинг) туркий адабиётда қўлланиши лингвистик поэтика масалалари аспектида ёритиб берилган. "Девону луготит

IZDOSHLIK MASALALARI.....	379
<i>Sa'dullayeva Shahlo</i> MUHAMMAD SALOMNING “DOVUL” QISSASIDA O‘QITUVCHI OBRAZINING DIDAKTIK FUNKSIYALARI.....	384
<i>Xojiyeva Oynisa</i> ABDURAUF FITRATNING DRAMATIK ASARLARIDA XALQ MAQOLLARINING O‘RNI.....	387
<i>O‘rinova Maftuna</i> OXUNJON SAFAROV ILMIY MEROSI VA O‘ZBEK FOLKLORSHUNOSLIGI.....	390
<i>Odinayeva Umida</i> TEMURIYLAR SULOLASI ADABIY MUHITING HINDISTON MADANIYATIGA TASIRI.....	392
<i>Islomova Shahnoza</i> MUMTOZ ADABIYOTDA TIBBIY BIRLIKLAR QO‘LLANISHI.....	395
<i>Suvonqulova Laylo</i> FITRAT LIRIKASIDA OBRAZLAR TIZIMI.....	398
<i>Shomurodova Maftuna</i> O‘ZBEK NAVOIYSHUNOSLIGI VA SADRIDDIN AYNIIY.....	402
<i>Giyazova Shahnoza</i> TILAK JO‘RA SHE‘RIYATIDA BAHOR TASVIRI.....	407
<i>Ismoilov Namozbek</i> XIROMIY “CHOR DARVESH” ASARINING TOSHBOSMA VA TABDILDAGI FARQLARI .....	411
<i>Nizomova Kamola</i> TOSHPO‘LAT AHMADNING “LABIHOVUZ SHE‘RLARI” TURKUMI HAQIDA.....	414
<i>Ochilova Nozima</i> ANVAR OBIDJON IJODI BUXORO ADBIYOTSHUNOSLARI TALQINIDA.....	418
<i>Hakimova Maftuna</i> ABDURAUF FITRATNING “QIYOMAT” HIKOYASIDA MA‘RIFATPARVARLIK G‘OYALARI TALQINI.....	420
4-sho‘ba. BADIY MATN TAHLILI VA TALQINI	
<i>Zebo Qobilova, Namuna Tursunova</i> ISTIQLOL DAVRI MUQIMIYSHUNOSLIGINING YETAKCHI TAMOYILLARI.....	427
<i>Ўлмасова Замирахон</i> ПОЭТИКАИ РОМАНИ “СЕ РЎЗИ ЯК БАҲОР”И САТТОР ТУРСУН.....	432
<i>Zilola Amonova, Eshonqulova Nasiba</i> “LISON UT-TAYR” DOSTONIDAGI TASAVVUFIY, FALSAFIY QARASHLAR.....	440
<i>Yuldasheva Dilorom</i> BADIY MATNDA SUKUTNING EKSPLITSIT VA IMPLITSIT IFODASI.....	443
<i>Berдиев Хусан, Ражабов Дилшод</i> МУКАРРАП САНЪАТИ ВА УНИНГ ЛИНГВИСТИК ТАВСИФИ.....	449
<i>Latofat Toshmuhammedova, Mohigul Abdullayeva</i> TARG‘IBOT MATNLARINING TAHLILI VA TALQINI: MUAMMO HAMDA YECHIMLAR.....	452
<i>Berдиев Хусан, Ёқубов Ихтиёр</i> “МУҲОКАМАТ УЛ-ЛУҒАТАЙН” АСАРИ ВА ЛИНГВОПОЭТИК ТАҲЛИЛ.....	458
<i>Jo‘rayev Jamoliddin</i> GULSHAN UL-ASROR” ASARIDA PIRI LADUNIYLAR HAQIDA HIKOYAT.....	461
<i>Raҳимова Наргис</i> АШЪОРИ СЕРГЕЙ ЕСЕНИН ВА АЛЕКСАНДР БЛОК ДАР ТАРҶУМАИ ФАРЗОНА.....	465



---

Ilmiy nashr

**“BUXORO ADABIY MUHITI:  
KECHA VA BUGUN”**

**mavzusidagi**

**xalqaro ilmiy-nazariy anjuman**

**MATERIALLARI**

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi:  
Bichimi 60x84. Kegli 14 shponli. «Times New Roman» garn.  
Offset bosma usulida chop etildi. Offset bosma qog'ozi.  
Bosma tabog'i 12,2. Adadi 40.

**“Fan ziyosi”** nashriyoti  
Bahosi kelishilgan holda.  
**“Dunyo poligraf plyus”** X/K  
bosmaxonasida chop etildi.

Mustaqillik ko'chasi 21-uy, Tel.: (91) 416-50-09